

TA'LIM-O'SMIR O'QUVCHILAR AQLIY KAMOLOTINI TA'MINLOVCHI MEZON

Djuraev Tashpulat Saxievich
Termiz Davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya kafedrası dotsenti

ANNOTASIYA

Ushbu maqolada o'smirlar aqliy taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi omillar, aqliy rivojlanishni ta'minlovchi mexanizmlar, ta'lim jarayonida o'smir o'quvchilarda aqliy faoliyat usullarini shakllantirish, nostandart ta'limning ahamiyati borasida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'smir, aqliy rivojlanish, aqliy faoliyat, ko'chish, aqliy mezon.

ANNOTATION

This article discusses the factors that influence the mental development of adolescents, the mechanisms that promote mental development, the formation of mental functioning in adolescents, and the importance of non-standard education.

Keywords: adolescents, mental development, mental activity, migration, mental criteria.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim sohasida eski yondashuvlardan butunlay voz kechilib, yangicha tamoyillarga, milliy qadriyat va an'alarimizga, ilg'or jahon tajribasiga asoslanib, hayotimizni tubdan yangilash, uzoq va davomli maqsadlarimizni amalga oshirish uchun ta'lim va tarbiya sohasiga ustuvor ahamiyat qaratilib, bor kuch va imkoniyatlar shu yo'lda safarbar etilib kelinmoqda.

"Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz - yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat", deb ta'kidlaydi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev o'zining BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida.

Respublikasida amalga oshayotgan tub islohotlar, yangilanishlar inson omili muammosini yanada chuqurroq va izchil ravishda tadqiq etishni taqozo etmoqda. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan shiddat bilan rivojlanayotgani taraqqiy etgan mamlakatlar bilan teng huquqli munosabatga kirishuvi intellektual yetuk yoshlarni kamol toptirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. Bugungi kunda fan va texnikani yuksak darajada egallash, jahon standarti darajasiga yaqinlashtirish uchun intellekt ko'rsatkichi yuqori hamda mustaqil fikrlovchi yoshlarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev asarlarida, normativ huquqiy hujjatlarda yoshlar oldiga ulkan vazifalar qo'yilmoqda, ularning komil inson bo'lib yetishishlari uchun esa umuminsoniy va milliy ma'naviy qadriyatlardan unumli foydalanish, ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish lozim. O'qituvchi, ota-onalar zimmasiga yuklatilgan murakkab vazifalar davlat ahamiyatiga ega bo'lib, ularni amaliyotga joriy etish orqali ta'lim va tarbiya texnologiyasini takomillashtirishni, tahsil olishning davlat standartini zamonaviylashtirish va ixchamlashtirishni yuzaga keltirish mumkin. O'quvchilar shaxsining kamolotida jismoniy, ahloqiy va aqliy yetuklikning tarkiblariga alohida e'tibor berish joiz.

"Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Farzandlarimiz, ayniqsa, qiz bolalarning zamonaviy bilim va kasb- hunarlarni, xorijiy tillarni

egallashlari, har tomonlama sog'lom va barkamol bo'lib, hayotdan munosib o'rin topishlari uchun barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Bizning navqiron avlodimiz manfaatlarini ta'minlash borasidagi faoliyatimiz yaqinda qabul qilingan **"Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"**gi Qonun asosida qat'iy davom ettiriladi.¹

2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai-nazariga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash" davlatimizning asosiy vazifasi ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalari ko'paytirildi, xorijdagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari diplomlarini nostrifikatsiyalash tizimi soddalashtirildi, nodavlat ta'lim muassasalari ham ochilib, talab yuqori bo'lgan qator sohalar bo'yicha sirtqi va kechki ta'lim yo'lga qo'yildi hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimi ham xalqaro andozalarga asosan takomillashtirildi. Natijada yoshlarni oliy ta'limga qamrab olish darajasi 6-7 foizdan 20 foizdan yuqoriroqqa ko'tarildi.

Bilim olish, kasbiy tayyorgarlik ta'limning ham ob'ekti, ham sub'ekti hisoblanuvchi o'quvchidan mustaqil tafakkurni va faollikni taqozo qiladi. Modomiki shunday ekan, aksariyat bilimlar tizimi mustaqil ravishda birlamchi manbalardan, axborot texnologiyalari yordami bilan egallanishi lozim. Buning uchun esa o'quvchilar intellektual jihatdan barkamol bo'lishlari shart. O'quvchilar ham ijtimoiy gumanitar, aniq hamda tabiiy fanlarni mukammal egallagandagina ezgu niyatga erishish mumkin. Aynan shu maqsadlarda mamlakatimizda maxsus ixtisoslashtirilgan maktablar, Prezident maktablari joriy etilib unda dunyoning nufuzli ta'lim maskanlaridan mutaxassislar jalb qilinmoqda.

Komillikka erishishning jismoniy, ahloqiy tarkiblarini o'quvchi yoshlar tomonidan egallash aqliy darajaga yetishdan osonroq kechadi. Shuning uchun aqliy (intellektual) rivojlanish maxsus ta'sir o'tkazishni va yangi pedagogik texnologiyadan foydalanishni talab etadi. Bilimlarni o'zlashtirish aynan aqliy kamolotni anglatmaydi, balki uning bir mezonini bajaradi, xolos. O'smir o'quvchilarni ta'lim jarayonida va undan tashqari paytlarda ham aqlan rivojlantirish, maxsus ta'limiy usullarga o'rgatish, omilkor yo'llar bilan muammolarni yechishga, fikr yuritishga, mustaqil ijodiy izlanishlarni amalga oshirishga tayyorlash lozim. Aqliy rivojlantirishga doir L.S.Vigotskiy, N.A.Menchinskaya, Dj.Bruner, P.Ya.Galperin, A.M.Matyushkin, T.V.Kudryavtsev kabi jahon psixologlarining turli-tuman nazariyalari mavjud bo'lib, ular har xil mezonlarga, ko'rsatkichlarga asoslanadi. O'smirlarni komil inson qilib shakllantirish uchun, eng avvalo ularni intellektual jihatdan yuksak darajalarga erishishlariga puxta negiz hozirlash lozim.

O'smirlik yoshining o'ziga xos murakkabligi quyidagilarda o'z ifodasini topadi.

1. Mazkur yosh davri jismoniy va aqliy jihatdan jadal rivojlanishi bilan ontogeneznining boshqa bosqichlaridan keskin ajralib turadi.
2. Ushbu taraqqiyot pallasida yoshlarda ijtimoiylashuv negizlari tarkib topadi.
3. O'smirlikda e'tiqod, ilmiy dunyoqarash, shaxsiy yo'nalish tezkor shakllana boshlaydi.

¹ Шавкат Мирзиёев: Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш - юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза 2016 йил 7 декабрь

4. Ma'naviyat, etnopsixologik xususiyatlar tarkib topishi uchun senzitiv davr bo'lib hisoblanadi.

5. O'zini o'zi anglash, izzattalablik, kasbga moyillik, fanlarga nisbatan differentsial munosabat paydo bo'ladi.

Ushbu masalani tadqiq etishda biz yirik pedagog-psixolog Yevgeniya Nikolaevna Kabanova-Meller bilan professor Ergash G'ozievich G'ozievlar tomonidan yaratilgan "Umumlashgan o'quv usullarini shakllantirish va o'zini o'zi boshqarish" nazariyasiga asoslanib yondashamiz. Bilimlarni o'zlashtirish ko'rsatkichi intellektni o'lchashning bir mezon sifatida olib qaraladi. Shuning uchun o'quvchilarni aqliy faoliyat usullariga o'rgatish mutlaqo ijtimoiy, ta'limiy zaruriyat hisoblanadi.

Jahon psixologiyasi fanida aqliy taraqqiyot muammosining nazariy va amaliy jihatlariga bag'ishlangan bir talay ilmiy tadqiqotlar o'tkazilganki, haligacha ularning ahamiyati o'z qiymatini yo'qotgan emas. Izlanishlarning ahamiyatiga binoan ba'zi qirralarini umumlashtirishga harakat qilamiz, chunki aynan shu holatning tahlili izlanishlarimizning dolzarbligini ochib beradi.

1. Intellect muammosini tushutirishda qadimgi davrdan to XIX asrgacha ikki xil yondashuv ustuvorlik qilib kelgan:

➤ birinchisi intellektual xususiyatlar odamga nasliy yo'l bilan ota-ona tomonidan beriladi, ya'ni bola onasidan aqli yoki aqli zaif bo'lib tug'iladi;

➤ ikkinchi yondashuvda esa intellekt bola idrokining tezligi va tashqi qo'zg'atuvchilarga nisbatan munosabatiga bog'lab tushuntirilgan.

2. XIX asrning boshlaridan intellektni o'rganishga ilmiy yondashuv psixologiya sohasida amalga oshirila boshlandi. Ayniqsa, frantsuz olimlari Alfred Bine va Teodor Simonlar tomonidan intellektni o'lchash mezonining aniqlanishi psixologiyada muhim kashfiyotlardan biri bo'ldi.

Frantsuz psixologlarining izlanishlarida muayyan yangi ko'rsatkichlar, original kontseptsiyalar yaratildi. (Sh.Byuler, A.Vallon, Zazzo va hokazo). Ayniqsa, shvetsariyalik psixolog Jan Piaje tomonidan yaratilgan o'ziga xos mukammal nazariya bu mazkur sohada yirik yo'nalish bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

AQShlik Spirmen, Termen, Kettel, Frimen, Tyorstoun kabi yirik psixologlarning tadqiqotlari intellektni bir qadam oldinga o'rganishda siljish bo'ldi.

3. Rossiyalik psixologlarning aqliy taraqqiyot masalasini o'rganishlari o'zining keng qirraliligi, mukammal ilmiy asoslanganligi, amaliy jihatdan tatbiq etishda natijaviyligi bilan alohida ajralib turadi.

L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, N.A.Menchinskaya, P.P.Blonskiy, B.M.Teplov, P.Ya.Galperin, Z.I.Kalmikova, N.S.Leytes, A.M.Matyushkin, Ye.N.Kabanova-Meller, V.V.Davidovlar tomonidan amalda qo'llanilgan metodlar, emperik materiallar o'zining originalligi, intellekt

taraqqiyotini o'lchash mezonlarining xilma-xilligi bilan psixologiya metodologiyasida ilmiy ahamiyatga ega. Ularning fikricha, intellekt

tizimida tafakkur ustivorligi bilan ajralib turadi.

4. AQSh, Yevropa va rus psixologiyasida keng ko'lamda tadqiq etilgan muammolardan biri ko'chish(perenos)dir. Ko'chish o'zining tuzilishi, turkumlanishi, bosqichlari, funktsiyalari, mexanizmlari bilan umumpsixologik hodisa bo'lishi bilan birga u intellekt taraqqiyotining muhim mezonidir. Bilimlar, ko'nikmalar, faoliyat tarkiblarining yangi vaziyatga (sharoitga) ko'chishi, shuningdek, uning darajalari ta'lim jarayonida o'ziga xos vazifalarni bajaradi hamda intellektning protsessual jabhasi, shaxslik jihati

singari qo'sh stimul xususiyatiga egadir.

Mamlakatimiz psixologlari ham intellekt muammosi bilan muayyan darajada shug'ullanganlar, chunonchi ularni ikki davrga ajratish mumkin:

-tarixiy yondashuv hamda unda yakka shaxsning o'rni, ta'limdagi ahamiyati masalalari Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Abdulla Avloniy va boshqalar tomonidan o'rganilgan;

-zamonaviy yondashuv, bunga intellektni rivojlanish xususiyatlari, yosh davr xususiyatlari, mezonlari jiddiy ravishda P.I.Ivanov, M.G.Davletshin, M.Vohidov, V.A.Tokareva, E.G'.G'oziev, B.R.Qodirov, G'.B.Shoumarov kabi olimlar tomonidan ilmiy o'rganilgan.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, maqsad, vazifa va farazlar tajribada adekvat namoyon bo'lganligi ilmiy izlanishlar ishonchlik darajasidan dalolat beradi. Ilgari surilgan g'oya maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi hamda pedagogik va yosh psixologiyasi sohasi uchun muayyan hissa sifatida xizmat qilishiga ishonch bildiradi. Tanlangan metodikalar o'zlarining validiligi bilan ishning qiymatini oshirishga kafolat beradi.

Mustaqil fikrlash va ijodiy yondashishning uyg'unligi umumlashtirish usullaridagi farqni ko'rsatdi. Shu sababli, eksperimentatorning yo'naltiruvchi savollari u yoki bu usulni o'zlashtirishda turlicha miqdorga ega bo'ldi.

Usullarni o'zlashtirish jarayonida aqliy ko'rsatkichi kuchli yoki kuchsiz

bo'lgan o'quvchilar o'rtasida ham miqdor, ham sifat

tahlilida farq mavjuddigi namoyon bo'ldi. Aqliy faoliyat tuzilishi va

uni egallash hamda zarurat vujudga kelganda boshqarish tizimida

qiyinchiliklarning uchrashi guruh, toifaviy tafovutlarni keltirib

chiqarishi aniqlandi.

Har bir usulni (tuzilishidan qat'iy nazar) o'zlashtirishda aqliy ko'rsatkichi turlicha bo'lgan o'smir o'quvchilar uchra turdi. Bizningcha, bu jarayonning vujudga kelishini shunday izohlash mumkinki, o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi tashkillashtirish, o'zini o'zi nazorat qilish tarkiblari o'smir o'quvchilar tomonidan egallay olinmaganligi, mustaqillik alomatlarining yetishmasligi bunga asosiy sababdir.

Nazorat topshiriqlarini yechishda aqliy zo'r berishlikning ustuvorligi, mustaqil izlanishning talab etilishi aqliy taraqqiyot darajasining yuksak koeffitsientini taqozo qiladi. Shuning uchun ularni (topshiriqlarni) bajarish muayyan aqliy harakatlar tizimi va vositasi yordamida amalga oshadi. Sinaluvchilarni qaysi turkumdagi usullarni o'zlashtirganiga mutanosib ravishda faoliyat maxsuli miqdori yuzaga keladi. Ularni yechish "birdaniga", asta-sekin, "buzib-tuzatib" amalga oshiriladi, u yoki bu tarzda qiyinchiliklar namoyon bo'ladi.

Nazorat topshiriqlarining ko'rsatishicha, I,II,III,IV usullarning tuzilishiga binoan o'ta mustaqil fikrlashni, yaqqolroq qiyosiy tavsifni, yagona ob'ektda mulohazalar birligini namoyon etuvchanligi bilan o'zaro tafovutlanib turadi. Ularning bir topshiriqdan ikkinchisiga, bir vaziyatdan boshqasiga ko'chishi usullar mohiyatiga bog'liq bo'lib, aqliy taraqqiyotni belgilashni vujudga keltiradi. Noma'lum sharoitlarda ham ulardan unumli foydalanish imkoniyati tug'iladi.

Ko'chish yo'llarining xilma-xilligi aqliy taraqqiyotni

o'lchashning muhim mezoni ekanligini tasdiqladi. Chunonchi, ko'chish yo'li

hech o'zgarishsiz yangi sharoitga qo'llanilsa, bu nafaol yo'l deb

baholanadi. Agarda ko'chish yo'li vaziyatga qarab fikran qayta qurilsa, u

holda faol yo'l deb nomlanadi. Yaqqol sharoitdan nazariy mushohadalarga,

qonuniyatdan yanada murakkabroq qonuniyatga fikrlarni ko'chirish ham faol yo'llardan biri deb

baholanadi. Topshiriq yechimi vaqt birligi bilan o'lchansa, u takdirda "birdaniga", asta-sekin amalga oshirilsa, mustaqillik xis qilinsa, bu psixologik fikriy hodisa faollikni anglatadi.

Olingan natijalarning ko'rsatishicha, tajribalar davomida ko'chishning uchta ko'rinishi aniq tarzda o'z ifodasini topdi. Buning asosiy sababi shuki, nazorat topshiriqlarining o'ziga xosligi mazmunan tuzilishi, murakkab yoki osonligidir.

Ko'chish yoki aqliy taraqqiyot bo'yicha nazorat va tajriba guruhlar o'rtasida muayyan tafovut borligi o'z aksini topdi. Bu ko'rsatkichlar shakllantiruvchi tajribalarning ijobiy ta'siridan dalolat beradi.

Mazkur ko'rsatkichlar bo'yicha tajriba guruhlarida ham ba'zi bir farqlar uchrab turdi. Bular sinalluvchilar tomonidan aqliy faoliyat usullarining murakkab yoki yengilidan foydalanganligi, shuningdek, ko'chishning xuddi shu tarzda yo'llarini qo'llaganligi bilan izohlanadi.

Ilmiy-nazariy mulohazalar, birlamchi manbalar tahlili, ularni muayyan yondashuvlar mohiyatiga umumlashtirish, oqilona va omilkor qirralarni ajrata olish, qiyosiy tavsifini amalga oshirish tadqiqot maqsadini ro'yobga chiqarishni ta'minladi. Izlanish farazi esa olingan empirik natijalar, ularning sifat tahlili, sub'ektlardagi o'zgarishlarning o'zaro izchilligi, ishlab chiqilgan mezonlar tizimi bilan uyg'unligi singari psixologik omillar tomonidan to'la tasdiqlandi. Bu psixologik hodisa tadqiqotning ilmiy -uslubiy apparati to'g'ri (adekvat) tuzilganligidan, eksperiment o'tkazish texnologiyasi maqsadga muvofiq ravishda kechganligidan dalolat beradi.

Nazariy va amaliy tahlil, talqin, umumlashma tadrijiylik tamoyiliga ko'ra, aqliy taraqqiyotning dinamik (protsessual) hamda shaxslilik (motivatsion) jabhalari uyg'unlik kasb etgan takdirdagina psixologiya yangilik unsurlari bilan boyib boradi. Chunki ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning salmoqli davrlari mobaynida ushbu mavzuda izlanishlar olib borilgan va bu borada muayyan nazariy hamda amaliy natijalar to'plangan.

Bir necha seriyali tadqiqot natijalariga asoslangan holda o'smir o'quvchilar aqliy rivojlanishining psixologik xususiyatlari to'g'risida miqdoriy tahlil va sifat talqiniga asoslangan holda quyidagicha xulosalar chiqarish mumkin.

Tadqiqot samaradorligini aniqlashning negiziga bir nechta mezonlar kiritilgan bo'lib, ular o'smir o'quvchilarning aqliy rivojlanishi xususiyatlarini ochib berishga xizmat qilishga yo'naltirilgan edi. O'zlashtirilgan bilimlarning anglanilganligi darajasi aqliy rivojlanishning mezon sifatida baholanishi mumkin va bu qaror ilmiy asosga egadir.

Ikkinchidan, turli xususiyatli aqliy faoliyat usullari o'zining faolligi bilan dinamik va motivatsion funktsiyani bajara olsa, demak, rivojlanish amalga oshganligini anglatadi.

Uchinchidan, oqilona usullarning ko'chishi va ularning ko'chish yo'llari o'ziga xosligi o'smir o'quvchining aqliy rivojidan darak beradi va nihoyat, mustaqil fikrlar faoliyatida, bilishga izlanishda topshiriqlarni operativ (tezkor) tarzda "birdaniga" yechishga erishsa, bu psixologik xolat aqliy rivojlanishni bildiradi.

1. O'smir o'quvchilarning aqliy rivojlanishi mezon sifatida qabul qilingan umumlashtirish usullarini o'zlashtirish xususiyati va bu usullarning ko'chish holati o'zaro farq qilmaydi. Har qaysi (xususiydan umumiyga, yakkadan umumiyga, so'ng xususiyga o'tish, umumiydan xususiyga va o'sha umumiydan yanada umumiyga, yagona umumiydan yanada umumiyga, kamroq umumiydan ko'proq umumiyga o'tish) umumlashtirish usuli ham o'smir o'quvchilardan mustaqillik, faollik va ijodiy fikrlashni talab qiladi. Ammo topshiriqlarning (qonuniyatlarning) o'ziga xos xususiyatiga qarab usullar ayrim paytlarda farqlanishi, ya'ni biri ikkinchisidan ustunlik qilishi mumkin. Lekin ular o'rtasidagi farq har qanday

vazifani bajargan chog'ida ham keskin bo'lishi kuzatilmaydi, biroq statistik ishonchlilik darajasiga ega bo'lmagan farqlar uchrab turadi.

O'rganilgan usullar yordamida o'quvchilarning topshiriqni «birdaniga» bajarishlari kuzatiladi. Bu psixologik holat topshiriqning oddiy yoki murakkabligiga, o'quvchilarning esa individual-tipologik xususiyatlariga, kamolotning aqliy ko'rsatkichiga bog'liqdir.

Usullarni yangi sharoit va vaziyatga ko'chirish vaqtida o'quvchilar o'rtasidagi individual-tipologik farqlar asta-sekin kamaya boradi va topshiriqni bajarishdagi qiyinchiliklarning miqdori biroz pasayadi. Shunga qaramasdan ular orasidagi ayrim tafovutlar quyidagi xollarda saqlanib qoladi:

- a) hamma vaqt ham o'smir o'quvchilar o'z nazariy bilimlarini amaliyotda bir xilda, bir tekis qo'llay olmaydilar, vaqt tezligi bois, ko'pincha ular xatolarga yo'l qo'yadilar;
- b) o'quvchilarda aqliy faoliyatning ko'rsatkichi bir xil qiymatga ega emas, bu xususiyat ularning saviyasiga, topshiriq, yechish motivatsiyasiga aloqador omil bilan izohlanishi mumkin;
- v) egallangan aqliy faoliyat usulini ko'chirish paytida topshiriqni «birdaniga», asta-sekin va «buzib-tuzatib» bajarish holatlari uchrab turadi;
- g) o'zlashtirgan aqliy rivojlantirish usullarini yangi sharoitga ko'chirish doirasining kengligi (uning yo'llari) o'quvchilarda turlicha darajada shakllangan bo'lishi kuzatiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida o'smir o'quvchilarda aqliy faoliyat usullarini shakllantirish shaxs aqliy kamolotini ta'minlovchi mezon hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, barcha fanlar bo'yicha o'qitish samaradorligini oshirishda quyidagilarga e'tiborni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir:

1. O'smir o'quvchilar aqliy faoliyatning turli usullarini egallashlari zarur, bu o'quv materiallarini o'zlashtirishni yengillashtiradi, darsda, darsdan tashqari vaqtlarda sinaluvchilarni ta'limiy usullar yuzasidan mashq qilishga o'rgatish nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlaydi. O'quv materiallari ularga «tayyor holda» berilmasligi, o'smirlar mustaqil ravishda bilimlarni egallashi lozim, murakkab qonuniyatlar va teoremlarga taalluqli muammolarni hal qilishga yo'naltirish ularni aqliy rivojlanishiga puxta zamin hozirlaydi.

2. O'quvchilarni aqliy faoliyat usullariga va ularni ko'chishiga o'rgatish natijasida nazorat va tarkib toptiruvchi usulga nisbatan qo'yilgan topshiriq talablarini taqqoslashda ongli munosabat imkoniyati ortadi. Mazkur sharoitda o'zlashtirilgan usullarni hech o'zgarishsiz qo'llash, ko'chish yo'lini tanlab amalga oshirish, yangi usullar izlab topish to'g'risida mulohaza yuritish faoliyati vujudga keladi. Ularda usullardan ongli foydalanish fazilati tarkib topishi aqliy rivojlanish ko'rsatkichi vazifasini bajaradi. Bu jarayonda nostandart materiallar muhim ahamiyat kasb etishi kuzatiladi.

3. Aqliy faoliyat usullarining ko'chishi yosh davrga qarab o'zgarib boradi. O'quvchilarning yoshi va saviyasi orta borishi bilan murakkab usullarni yangi sharoitga ko'chirish o'quvi ularda takomillashadi, usullarning ko'chish ko'lamini kengayadi va fanlararo xususiyat kasb etadi, bu aqliy faoliyatning muhim omili sanaladi. Usullar

ko'chishining faol yo'llari paydo bo'lishi va murakkablashishi tufayli, o'quvchilarda shaxsiy tashabbus bilan usullarni ko'chirish imkoniyati tug'iladi. Usullarni ko'rgazmali yaqqol materialdan boshqa ko'rgazmali yaqqol materialga, ko'rgazmali yaqqol materialdan mavhum materialga ko'chirishda keskin o'zgarishlar vujudga keladi. Ushbu omil aqliy rivojlanishning yana bir ko'rsatkichidir.

4. Usullarga o'quvchilarni o'rgatish natijasida barcha fanlarga motivatsiya ortadi, o'qishga intilish, unga ijobiy munosabatda bo'lish, tirishqoqlik xislari shakllanadi. Usullarni o'quvchilarda tarkib toptirish ularning aqliy rivojlanishida sezilarli siljish yasaydi. Natijada aniq, mavhum va ijodiy fikrlashda sifat o'zgarishlari yuz beradi. O'quvchilarda fikr yuritishning yaqqoldan mavhumga, mavhumlikdan yaqqolga o'tish shakllari parallel ravishda taraqqiy etadi. Buning natijasida aqliy rivojlanishni mukammallashtiruvchi unumli fikr yuritishga keng imkoniyatlar yaratiladi.

5. Aqliy taraqqiyot o'quvchilar tomonidan egallangan bilimlar zahirasi bo'libgina qolmay, balki ularning o'quv, malaka va ko'nikmalarini, ta'limiy usullar hamda ularning ko'chishi bilan ongli munosabatda bo'lish qirralarini o'z ichiga qamrab oluvchi rivojlanish majmuasidir. Ta'lim jarayonida va undan tashqari vaqtlarda o'smir o'quvchilarda aqliy faoliyat turli usullarini shakllantirish ularning aqliy rivojlanishini ta'minlovchi muhim psixologik mexanizm sifatida o'zini o'zi boshqarish imkoniyatini beradi.

O'quvchilarning aqliy faoliyat usullarini tarkib toptirishda ularning yosh va individual-tipologik xususiyatini hisobga olish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020 y. O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2020 yil 24 sentyabr
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi 2017 yil 16 fevral, PF-4958-sonli Farmoni//O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. 2017, 6-son.
3. Shavkat Mirziyoev: Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishtangan tantanali marosimdagi ma'ruza 2016 yil 7 dekabr.
4. Kabanova-Meller Ye.N. Formirovanie priemov umstvennoy deyatel'nosti i razvivayushie obuchenie. M.: Znanie, 1981, s 168.
5. Tixomirova L.F. Rzvitiye intellektual'nykh sposobnostey shkol'nika. Yaroslavl. Akademiya razvitiya. 1996. s.240
6. Nishonova Z.T. Yuqori sinf o'quvchilarining aqliy faoliyat usullari va yo'llarini egallash xususiyatlari. Psix.fan.nomzodi diss. T.; TDGTI, 1993. 162 b.
8. G'oziev E.G'. O'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish T.O'qituvchi. 1988. 101 b.
9. G'oziev E.G'. Ontogenez psixologiyasi T.; O'qituvchi, 2010, 360 b.